
**VOLUME 10, OCTOBER 2026**
ISSN: 3060-4958







# The Lingua Spectrum




UZBEKISTAN STATE WORLD
LANGUAGES UNIVERSITY

**MORE INFO:**

www.lingvospektr.uz

t.me/thelinguaspectrum

| | | |
|---|---|---|
| **Nazarova N.B.** | The Literary Representation of Women's Accomplishments and Charm in Jane Austen's Novels | 319 |
| **Karimova S.S.** | Connotative meaning and pragmatic interpretation in literary texts | 325 |
| **Radjabova G.G.** | Corpus evidence and the limits of intuition in the study of collocation | 331 |
| **Adinaev O.J.** | Onomastic, lexico-semantic and linguocultural foundations for the study of celestial body names | 339 |
| **Muxitdinova X.S.** | Sociocultural and diachronic characteristics of personal names in the Uzbek language | 349 |
| **Amanov V.B.** | Universal values as an object of linguocultural research in Spanish and Uzbek | 358 |
| **PEDAGOGY** | | **378** |
| **Kambarova D.I.** | The methodology of developing oral speech competence of future foreign language teachers in a digital educational environment | 379 |
| **Allayarov T.Ya.** | Developing communicative competence of public health college students using the standardized patient method | 389 |
| **Silanteva E.F.** | Preliminary training for ESP teachers for effective integrated teaching | 396 |
| **Omonova E.B., Musoyeva A.B.** | Digital revision portfolios for developing English writing skills in Uzbek secondary schools | 411 |
| **Paluanova Kh.D.** | The relationship between pragmalinguistic analysis and linguodidactic design in preservice English teacher education | 419 |
| **Adamboyeva N.Q.** | Age-related development of phonological skills in children aged 7–10 and their role in reading competence | 427 |
| **Alimardonov L.A.** | Theoretical foundations and conceptual model of spiritual technologies in ensuring the information security of young people | 435 |
| **Pazilova N.M., Abdulhakimova R.A.** | Didactic potential and limitations of generative artificial intelligence in teaching Russian | 443 |
| **Kadirova N.M., Tahirova Sh.Sh.** | Stages of working with texts in Russian language classes at higher education institutions | 450 |
| **Pulatova F.U.** | Pragmadidactic features of teaching implicature and indirect speech acts in English language education | 456 |
| **Sulaymonova M.A.** | AI-Assisted Feedback in EFL Writing: Implications for Writing Accuracy and Learner Autonomy | 464 |
| **Khodjieva Z.M.** | Theoretical and Methodological Foundations and Practical Stages of Criterion-Referenced Assessment in Foreign Language Teaching at Higher Education Institutions | 489 |
| **Musayeva F.M.** | The role of specialized vocabulary in developing the lexical competence of oil and gas students | 498 |

# Onomastic, lexico-semantic and linguocultural foundations for the study of celestial body names

**Adinaev Odil Jumanazarovich**
adinayevodil@gmail.com
*Senior teacher of the English Teaching Department №2,*
*Uzbekistan State World Languages University*

**Annotation** *The article outlines the theoretical foundations for a contrastive study of celestial body names in English and Uzbek. Celestial body names are treated as an independent class of the onomastic system, and the denotative, semantic, functional and cultural criteria that separate this class from toponyms and anthroponyms are substantiated. The scope of the term "celestial body name" is defined, its relation to the terms "cosmonym" and "astronym" is clarified, and a folk layer and an official nomenclature layer are distinguished within the class. The lexico-semantic analysis rests on the theory of nomination, componential analysis and semantic field theory; four semes are identified in the meaning of a name: categorial, denotative, motivational and connotative. For the linguocultural analysis, the notions of cultural connotation, concept, linguistic picture of the world, cultural code, equivalence and lacunarity are systematised. The ratio of a universal basis to national expression is shown on the names of the Great Bear constellation. The theoretical claims are illustrated with a corpus of 500 units, and a three-stage contrastive procedure is proposed.*

**Keywords** *Celestial body name, cosmonym, onomastic class, motive of nomination, semantic field, cultural connotation, linguistic picture of the world*

# Samoviy jism nomlarini tadqiq etishning onomastik, leksik-semantik va lingvomadaniy asoslari

**Adinayev Odiljon Jumanazarovich**
adinayevodil@gmail.com
*Ingliz tili o'qitish metodikasi №2 kafedrasi katta o'qituvchisi,*
*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

**Annotatsiya** *Maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi samoviy jism nomlarini chog'ishtirma o'rganishning nazariy asoslari yoritiladi. Samoviy jism nomlari onomastik tizimning mustaqil sinfi sifatida qaralib, uni toponim va antroponimlardan farqlovchi denotativ, ma'noviy, funksional va madaniy mezonlar asoslanadi. Samoviy jism nomi atamasining hajmi belgilanib, uning kosmonim va astronim atamalari bilan munosabati aniqlanadi, sinf ichida xalq qatlami va rasmiy nomenklatura qatlami farqlanadi. Leksik-semantik tahlil uchun nominatsiya nazariyasi, komponent tahlil va semantik maydon nazariyasi tayanch qilib olinadi, nom ma'nosida kategorial, denotativ, motivatsion va konnotativ semalar ajratiladi. Lingvomadaniy tahlil uchun madaniy konnotatsiya, konsept, olamning til manzarasi, madaniy kod, ekvivalentlik va lakunarlik tushunchalari tizimlashtiriladi. Universal asos bilan milliy ifoda nisbati Katta Ayiq turkumi nomlari misolida ko'rsatiladi. Nazariy qoidalar ikki tildan olingan 500 birlikli korpus misollari bilan izohlanadi va uch bosqichli chog'ishtirma metodika asoslanadi.*

The Lingua Spectrum
Cogito, ergo sum

Jurnal Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan 2025-yil 4-yanvar kuni 366/5-sonli qaror bilan tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

**Kalit so'zlar** *Samoviy jism nomi, kosmonim, onomastik sinf, nominatsiya motivi, semantik maydon, madaniy konnotatsiya, olamning til manzarasi*

# Ономастические, лексико-семантические и лингвокультурологические основы изучения названий небесных тел

**Адинаев Одилжон Жуманазарович**
*adinayevodil@gmail.com*
*Старший преподаватель кафедры методики преподавания английского языка № 2,*
*Узбекский государственный университет мировых языков*

**Аннотация** *В статье рассматриваются теоретические основы сопоставительного изучения названий небесных тел в английском и узбекском языках. Названия небесных тел рассматриваются как самостоятельный класс ономастической системы; обосновываются денотативный, семантический, функционалный и культурный критерии, отграничивающие его от топонимов и антропонимов. Уточняется объём термина «название небесного тела» и его соотношение с терминами «космоним» и «астроним», внутри класса разграничиваются народный и официалный (номенклатурный) пласты. Опорой лексико-семантического анализа служат теория номинатsiи, компонентный анализ и теория семантического поля; в значении названия выделяются категориалная, денотативная, мотиватsионная и коннотативная семы. Для лингвокультурологического анализа систематизируются понятия культурной коннотатsии, концепта, языковой картины мира, культурного кода, эквивалентности и лакунарности. Соотношение универсалной основы и натsионалного выражения показано на примере названий созвездия Болшая Медведица. Теоретические положения иллюстрируются материалом корпуса из 500 единиц; обосновывается трёхэтапная сопоставителная методика.*

**Ключевые слова** *Название небесного тела, космоним, ономастический класс, мотив номинатsiи, семантическое поле, культурная коннотатsiя, языковая картина мира*

**Kirish**

Atoqli otlar tizimida samoviy jismlarga berilgan nomlar eng qadimiy va eng barqaror qatlamlardan biridir. Ular bir tomondan aniq astronomik obyektni ko'rsatsa, ikkinchi tomondan xalqning koinot haqidagi tasavvurini, mehnat taqvimini va afsonalarini o'zida saqlaydi. Shu sababli zamonaviy onomastikada bu nomlar til tizimi bilan madaniy xotira o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in sifatida baholanmoqda (Hough, 2016).

Shunga qaramay, onomastik tadqiqotlarda uzoq vaqt antroponimiya va toponimiya ustun bo'lib keldi. Kosmonimiya esa chetda qoldi: material asosan og'zaki an'anada yashagan, yozma manbalarda kam qayd etilgan, nomlarning bir qismi esa tilshunoslik emas, astronomiya mulki deb

hisoblangan. O‘zbek onomastik leksikografiyasida ham kosmonim va mifonimlar hali yetarli o‘rganilmagan nom turlari qatorida tilga olinadi (Tursunov, 2025).

So‘nggi yillarda vaziyat o‘zgarmoqda. Madaniy astronomiya yo‘nalishi turli xalqlarning osmon haqidagi tasavvurlarini yagona tizimda tavsifladi (Ruggles, 2015). Xalqaro astronomiya ittifoqining Yulduz nomlari bo‘yicha ishchi guruhi rasmiy katalogni arab va yunon-lotin an’anasidan tashqaridagi madaniyatlar nomlari bilan boyitishga kirishdi (Hoffmann et al., 2025). Bu jarayon xalq nomlarining lisoniy maqomini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi.

O‘zbek tili uchun masala ayniqsa dolzarb. Xalq tilida Hulkar, Yetti qaroqchi, Temirqoziq, Cho‘lpon kabi nomlar yashab kelayotgan bo‘lsa, maktab darsligida Qutb yulduzi, Katta Ayiq kabi rus tili orqali kirgan shakllar beriladi (Mamadazimov, 2018). Ikki qatlam o‘rtasidagi munosabat ingliz tili materiali bilan tizimli chog‘ishtirilmagan.

Maqolaning maqsadi – ingliz va o‘zbek tillaridagi samoviy jism nomlarini chog‘ishtirma tavsiflash uchun zarur onomastik, leksik-semantik va lingvomadaniy nazariy apparatni tizimlashtirish hamda uni korpus misollari bilan asoslashdir. Shu maqsadda uch vazifa qo‘yildi: samoviy jism nomlarini mustaqil onomastik sinf sifatida chegaralash; nom ma’nosini tavsiflash vositalarini belgilash; nomlarning madaniy mazmunini ochuvchi tushunchalar tizimini aniqlash.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Onomastikaning mustaqil soha sifatida shakllanishi XX asr o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. V. Nikonov nomlarni o‘rganishda tarixiy va lisoniy yondashuvni uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatgan (Nikonov, 1965). A. Superanskaya atoqli otning umumiy nazariyasini yaratib, onomastikani leksikologiya tarmog‘i emas, alohida soha deb belgilagan. Uning talqinicha, atoqli otlar yopiq tizim emas, turdosh otlar bilan doimiy almashinuvdagi ochiq maydondir (Superanskaya, 1973). N. Podolskayaning lug‘ati esa sohaning atamalar apparatini tartibga solgan (Podolskaya, 1988). G‘arb tilshunosligida nomlarning madaniy mazmuni masalasini W. Bright ko‘targan (Bright, 2003). D. Blair va J. Tent nom berish turlarining qayta ko‘rib chiqilgan tipologiyasini taklif qilgan (Blair & Tent, 2021).

Atoqli otning ma’noga egaligi haqidagi bahs uch qarashni yuzaga keltirdi. J. S. Mill nomni konnotatsiyasiz yorliq deb hisoblagan (Mill, 1843). S. Kripke bu fikrni “qat’iy belgilovchi” tushunchasi orqali davom ettirgan (Kripke, 1980). J. Searle esa nom ortida tavsiflar majmui turishini isbotlashga uringan (Searle, 1958). Oraliq pozitsiyani W. Van Langendonck “proprial lemma” tushunchasi bilan asoslagan: nom lug‘atda o‘z kategoriyasi bilan birga saqlanadi va shu kategoriya uning ma’noviy yadrosini tashkil etadi (Van Langendonck, 2007).

Samoviy jism nomlarining o‘ziga xos tadqiqi bir necha yo‘nalishda olib borilgan. Ingliz tilidagi yulduz nomlarining kelib chiqishi va afsonaviy asosi R. Allen hamda P. Kunitzsch va T. Smart asarlarida tavsiflangan (Allen, 1963; Kunitzsch & Smart, 2006). Rus onomastikasida Yu. Karpenko yulduzli osmon nomlarini tizimlashtirgan (Karpenko, 1981), M. Rut esa xalq astronimiyasini dala yozuvlari asosida to‘plagan (Rut, 1987). Turkologiyada zamonaviy turkiy tillardagi yulduz nomlari keng qiyosiy material asosida tavsiflangan (Li, 2014). Atamalar masalasida A. Gałkowski to‘rt til misolida “astronym” va “cosmonym” atamalarining o‘rnini qiyoslagan (Gałkowski, 2025), J. Kozma esa samoviy obyekt nomlarini global va mahalliy darajalarda farqlagan (Kozma, 2018).

O‘zbek tilshunosligida samoviy jism nomlariga oid ishlar ko‘payib bormoqda. G. Qurbonova yulduz va turkum nomlarining nominativ xususiyatlarini Temirqoziq, Yetti qaroqchi kabi misollarda ko‘rib chiqqan (Qurbonova, 2023). R. Berdimuratova kosmonimlarning tarixiy-madaniy va mifologik qatlamlarini tahlil qilgan (Berdimuratova, 2025). Ingliz tili bilan chog‘ishtirish yo‘nalishida D. Ibragimova ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi

kosmonimlarni qiyoslagan (Ibragimova, 2018). R. Xajiyeva ikki tildagi kosmonimlarning ramziy ma'nolarini umumiy tavsiflagan (Xajiyeva, 2026), X. Matyakubov folklor onomastikasida makonning ikkilik qarama-qarshiliklar orqali toifalanishini ko'rsatgan (Matyakubov, 2026). Qozoq va ingliz kosmonimlarini konsept sifatida qiyoslagan tadqiqot ham shu yo'nalishga kiradi (Daulet & Yıldırım, 2026).

Adabiyotlar tahlili ikki xulosaga olib keladi. Birinchidan, umumiy onomastik nazariya va xalq astronimiyasini tavsiflash tajribasi yetarli darajada shakllangan. Ikkinchidan, mavjud qiyosiy ishlar asosan qisqa maqolalardan iborat bo'lib, ularda yagona korpusga tayangan miqdoriy tahlil va ikki tilni bir o'lchov tizimida chog'ishtirish usuli taklif etilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqot materialini ingliz va o'zbek tillaridan 250 tadan, jami 500 ta samoviy jism nomi tashkil etadi. Ingliz tili birliklari R. Allen va P. Kunitzsch asarlari, Oksford ingliz tili lug'ati hamda Xalqaro astronomiya ittifoqining rasmiy ro'yxatlaridan olindi. O'zbek tili birliklari "O'zbek tilining izohli lug'ati", "Devonu lug'otit turk" (Koshg'ariy, 1960–1963), Alisher Navoiy asarlari tili lug'ati, folklor to'plamlari va maktab darsligidan to'plandi. Etimologik ma'lumotlar Sh. Rahmatullayevning lug'ati bo'yicha tekshirildi (Rahmatullayev, 2000).

Korpusga kiritishning uch sharti belgilandi: birlik kamida ikki mustaqil manbada qayd etilgan bo'lishi, denotati aniq bo'lishi va zamonaviy tilda yoki tarixiy manbada barqaror qo'llanishi kerak. Faqat bir marta uchragan tasodifiy nomlar chiqarib tashlandi.

Tahlilda tavsifiy, komponent, onomasiologik, etimologik va chog'ishtirma usullar qo'llandi. Chog'ishtirishning asosiy sharti sifatida V. Gakning "uchinchi a'zo" talabi qabul qilindi: turli tizimli tillarni bevosita emas, ikkalasi uchun umumiy o'lchov orqali solishtirish lozim (Gak, 1977). Bunday o'lchov vazifasini semantik maydon tuzilishi bajaradi.

Shunga ko'ra tahlil uch bosqichda olib boriladi. Avval har bir til materiali alohida tavsiflanadi, so'ngra ikki tavsif bir o'lchov tizimiga keltiriladi, oxirida o'xshashlik va farqlar aniqlanadi. V. Yartseva bu tartibning buzilishi kontrastiv tahlilda xatoga olib kelishini ta'kidlagan (Yartseva, 1981). Miqdoriy hisob yordamchi vosita bo'lib, har bir guruh, motiv va qatlam bo'yicha birliklar soni va ulushi foizda beriladi.

**Tahlil va natijalar**

1. **Samoviy jism nomlari mustaqil onomastik sinf sifatida**

Ilmiy adabiyotda bu sinfni atash uchun bir necha atama ishlatiladi. N. Podolskaya kosmonimni har qanday kosmik obyekt yoki fazo zonasining nomi, astronimni esa alohida yulduz yoki sayyora nomi deb ta'riflaydi (Podolskaya, 1988). Yu. Karpenko bu atamalarni yaqin ma'noda qo'llab, turkum va asterizm nomlarini alohida ajratadi (Karpenko, 1981). Biz asosiy atama sifatida *samoviy jism nomi* birikmasini taklif qilamiz. U o'zbek tilining o'z vositalari bilan tuzilgan va yulduzdan tashqari sayyora, turkum, tumanlik hamda osmon sohalarini ham qamraydi. Kosmonim atamasi unga teng hajmli sinonim sifatida qo'llanadi, astronim esa xususiy tushuncha bo'lib qoladi.

Samoviy jism nomi deganda samoviy jismni yoki osmon fazosining muayyan bo'lagini alohida obyekt sifatida ajratuvchi atoqli ot tushuniladi. Ta'rif uch shartga tayanadi: denotat kosmik tabiatga ega bo'ladi, nom uni o'z turidagi boshqa obyektlardan ajratadi va til jamoasida barqaror qo'llanadi. Ikkinchi shart atoqli otning identifikatsiya va differensiatsiya vazifasidan kelib chiqadi (Valentová & Králik, 2022). Uchar yulduz birikmasi jismni emas, hodisani bildirgani uchun chegaraviy holat hisoblanadi, ammo xalq tilida barqaror nom bo'lgani sababli sinfga kiritiladi.

Sinfni qo'shni sinflardan ajratish uchun to'rt mezon taklif etiladi:

- **Denotativ mezon** – nomlangan obyekt kosmik tabiatga ega.
- **Ma'noviy mezon** – nom tarkibida samoviy jismga ishora qiluvchi kategorial sema bor (Tong yulduzi, morning star).

- **Funksional mezon** – nom vaqt hisobi, yo‘l topish yoki taqvim tuzishda amaliy vazifa bajaradi (Cho‘pon yulduzi, Dehqon yulduzi).
- **Madaniy mezon** – nom mifologik, diniy yoki poetik mazmun bilan bog‘langan (Baxt yulduzi, Tole yulduzi).

Mazkur mezonlar asosida samoviy jism nomlari toponimlardan farqlanadi: toponim denotati kuzatuvchiga nisbatan harakatsiz bo‘ladi, samoviy jism esa uzoqda joylashib, ko‘rinma harakatda bo‘ladi. Antroponimlar bilan chegara esa ikki yo‘nalishda ochiq. Mifologik shaxs nomi osmonga ko‘chadi (Orion, Perseus, Zuhro), samoviy jism nomi esa kishi ismiga aylanadi (Sitora, Hilola, Stella, Luna). Hamal, Savr, Sunbula kabi burj nomlari bir vaqtda oy nomi vazifasini bajargani uchun kosmonimiya xrononimiya bilan ham kesishadi.

Sinf ichida xalq qatlami va rasmiy nomenklatura qatlami farqlanadi. Xalqaro astronomiya ittifoqi 1922-yilda 88 turkum ro‘yxatini tasdiqlagan, 2016-yilda esa yulduz nomlarini me’yorlashtirish ishini boshlagan (Kozma, 2018). Natijada bir denotat ikki nomga ega bo‘ladi: Alpha Canis Majoris ilmiy matnda, Sirius esa ommabop va badiiy matnda qo‘llanadi. Ingliz tilida rasmiy qatlam ko‘p hollarda an’anaviy nomni o‘zgarishsiz qabul qilgan, shuning uchun Mercury, Venus, Mars nomlari ikkala sohaga xizmat qiladi. O‘zbek tilida esa rasmiy qatlam rus tili orqali kirgan va xalq nomlari bilan uzviy aloqasi yo‘q (1-jadval).

| Rasmiy (darslik) shakli | Xalq tilidagi nomi | Ingliz tilidagi muqobili |
|---|---|---|
| Katta Ayiq | Yetti qaroqchi | Great Bear, Big Dipper |
| Qutb yulduzi | Temirqoziq | Polaris, North Star |
| Galaktika | Somon yo‘li, Kahkashon | Milky Way, Galaxy |
| Kometa | Quyruqli yulduz, Dumli yulduz | comet |
| Venera | Cho‘lpon, Zuhro | Venus, morning star |
| Saturn | Zuhal, Kayvon | Saturn |
| Mars | Mirrix, Bahrom | Mars |

**1-jadval.** *O‘zbek tilidagi rasmiy va xalq nomlari juftliklari hamda ularning ingliz tilidagi muqobillari*

Jadvaldan ko‘rinadiki, ingliz tilida bir nom ilmiy va kundalik nutqqa birdek xizmat qilsa, o‘zbek tilida har bir soha o‘z nomiga ega. Bu holat o‘zbek astronomiya terminologiyasini tartibga solishda hisobga olinishi lozim.

2. **Leksik-semantik tahlilning nazariy tayanchlari**

Nominatsiya voqelik bo‘lagiga til belgisini biriktirish jarayonidir. Ye. Kubryakova uni bilish faoliyatining natijasi deb biladi va unda belgi tanlash bosqichini hal qiluvchi deb hisoblaydi (Kubryakova, 2004). Nom berilganda obyektning barcha belgilari emas, bittasi tanlanadi va u nomning ichki shaklini tashkil etadi. Antares nomida rang, Temirqoziq nomida harakatsizlik, Cho‘lpon nomida esa yorqinlik belgisi tanlangan.

Samoviy jism nomlarining aksariyati ikkilamchi nominatsiya mahsulidir, ya’ni tilda mavjud so‘z yangi denotatga ko‘chiriladi. Osmon obyektlari yer yuzidagi tanish narsalar orqali tasavvur qilingani uchun metaforik ko‘chish ustun keladi (Lakoff & Johnson, 1980): Big Dipper, Crab Nebula, Qovg‘a, O‘roq oy. Metonimik ko‘chish esa yulduzning turkumdagi o‘rnini bildiruvchi nomlarda uchraydi: Rigel “oyoq”, Menkar “burun”, Qalb ul-aqrab “chayonning yuragi”. V. Teliya ta’kidlaganidek, ikkilamchi nominatsiyada obrazli asos saqlanib,

nomning konnotativ mazmunini shakllantiradi (Teliya, 1996).

Korpus asosida nomlashning yetti motivi ajratildi: tashqi o‘xshashlik, mifologik-antroponimik, funksional-amaliy, rang va yorug‘lik, joylashuv va harakat, diniy-e’tiqodiy hamda memorativ motivlar. Motivlar taqsimoti ikki tilda farqlanadi. Funksional-amaliy motiv ingliz korpusida 9, o‘zbek korpusida 16 birlikda; rang va yorug‘lik motivi 5 va 15 birlikda; diniy-e’tiqodiy motiv 4 va 9 birlikda qayd etildi. Mifologik-antroponimik motiv esa ikki tilda yaqin: 70 va 63 birlik.

Nom ma’nosini tavsiflash uchun komponent tahlil qo‘llandi. Yu. Apresyan ma’noni ierarxik tartiblangan semalar majmui sifatida talqin qiladi (Apresyan, 1995). Samoviy jism nomlarida to‘rt sema ajratiladi: *kategorial* sema nomning sinfini, *denotativ* sema aniq obyektni ko‘rsatadi, *motivatsion* sema nomlash asosidagi belgini saqlaydi, *konnotativ* sema esa madaniy mazmunni tashiydi. Semalarning faolligi nom turiga bog‘liq (2-jadval).

| Nom | Kategorial | Denotativ | Motivatsion | Konnotativ |
|---|---|---|---|---|
| Yetti qaroqchi (xalq nomi) | bor | bor | bor (qaroqchilar obrazi) | bor (afsona) |
| Horsehead Nebula (rasmiy nom) | bor | bor | bor (shakl o‘xshashligi) | deyarli yo‘q |
| HD 209458 b (katalog belgisi) | zaif | bor | yo‘q | yo‘q |

**2-jadval.** *Turli qatlamdagi samoviy jism nomlarida semalarning faolligi*

Demak, xalq nomi bilan rasmiy termin o‘rtasidagi farq motivatsion semaning bor-yo‘qligida emas, uning konnotativ sema bilan birga faollashuvida ko‘rinadi.

Nomlarning o‘zaro munosabati semantik maydon doirasida tavsiflanadi. J. Trier so‘zlar yakka holda emas, o‘zaro bog‘liq guruhlar ichida ma’no kasb etishini asoslagan (Trier, 1931). Samoviy jism nomlari maydonining arxisemasi “samoviy jism yoki osmon fazosining bo‘lagi” deb belgilanadi. Markazda Sirius, Polaris, Hulkar, Cho‘lpon kabi denotati aniq nomlar, chekkada esa the welkin, ko‘k, falak kabi turdosh otga yaqin birliklar joylashadi.

Maydon ichida paradigmatik munosabatlar ham kuzatiladi. Onomastik sinonimiya to‘liq bo‘lmaydi, chunki har bir variant o‘z uslubiy sohasiga ega: Venera darslikda, Cho‘lpon badiiy matnda, Zuhro mumtoz she’riyatda qo‘llanadi. Burj nomlarida sinonimiya tizimli tus oladi: arabcha Saraton, Mezon, Dalv nomlariga turkiy Qisqichbaqa, Tarozi, Qovg‘a kalkalari mos keladi. Ingliz tilida esa lotincha nomlardan iborat yagona qator amal qiladi. Tuzilish jihatidan ingliz korpusida sodda nomlar (165 ta), o‘zbek korpusida esa birikmali nomlar (103 ta; ingliz tilida 72 ta) nisbatan ko‘p.

3. **Lingvomadaniy tahlilning nazariy tayanchlari**

Lingvomadaniy yondashuvda nom faqat lug‘aviy ma’nosi bilan emas, u bilan bog‘liq tasavvurlar, afsonalar va marosimlar bilan birga o‘rganiladi. F. Sharifian madaniy tasavvurlar jamoaviy bilish natijasida shakllanib, til orqali avloddan avlodga o‘tishini ko‘rsatgan (Sharifian, 2017). Samoviy jism nomlari ana shunday jamoaviy tasavvurning eng barqaror shaklidir.

Madaniy konnotatsiya uch manbadan oziqlanadi: mifologiya, diniy ta’limot va adabiy an’ana (Teliya, 1996). Ingliz tilida mifologik manba yagona yunon-rim tizimiga tayanadi: Orion, Andromeda, Perseus nomlari bitta syujet doirasida bog‘langan. O‘zbek tilida esa turkiy, eroniy va islomiy qatlamlar qorishgan. Venera turkiy Cho‘lpon, arabcha Zuhro va forscha Nohid nomlari bilan ataladi. Temirqoziq haqidagi rivoyatlarda osmonni tutib turuvchi

qoziq va uning atrofida aylanuvchi Oqbo‘zot, Ko‘kbo‘zot otlari obrazi saqlangan (Turdimov, 2024). Diniy qatlamda ingliz tilidagi firmament, empyrean hamda o‘zbek tilidagi Arsh, Kursi, yetti qat osmon birliklari dunyoning vertikal tuzilishini ifodalaydi.

Konsept tushunchasi nom ortidagi bilim tuzilmasini tavsiflashga xizmat qiladi. Yu. Stepanov konseptda kundalik tasavvur, tarixiy-etimologik asos va nazariy bilim qatlamlarini ajratadi (Stepanov, 2004). “Osmon” konsepti korpusda shu qatlamlarga muvofiq taqsimlanadi: kundalik qatlamni Osmon, Ko‘k, tarixiy qatlamni Sipehr, Gardun, Falak, the welkin, firmament, nazariy qatlamni esa Osmon sferasi (celestial sphere) kabi atamalar tashkil etadi. O‘zbekcha falak so‘zi taqdirni ham bildiradi, ingliz tilidagi wheel of fortune esa osmon nomiga bog‘lanmagan.

Olamning til manzarasida samoviy jism nomlari ikki o‘qni tashkil etadi. Vertikal o‘qda yeru ko‘k va heaven and earth qarama-qarshiligi turadi, uning eng yuqori nuqtasi Arsh va empyrean bilan belgilanadi. Gorizontal o‘qda esa nomlar yo‘nalishni ko‘rsatadi: o‘zbek tilida Temirqoziq obrazli, ingliz tilida North Star tavsifiy yo‘l bilan nomlangan. Madaniy kodlar ham ikki tilda turlicha taqsimlanadi: ingliz tilida zoomorf kod (Ursa Major), o‘zbek tilida predmet kodi (Temirqoziq, Tarozi, Qovg‘a) faolroq (Maslova, 2010).

Universal asos va milliy ifoda nisbati Katta Ayiq turkumida yaqqol ko‘rinadi. Ikki tilda ham yetti yorqin yulduz alohida guruh sifatida ajratiladi va bu universal jihatdir. Guruhni qaysi obraz orqali nomlash esa milliy tanlov: ingliz tilida ayiq, cho‘mich va omoch (Ursa Major, Big Dipper, The Plough), o‘zbek tilida yetti kishilik guruh (Yetti qaroqchi). Z. Kövecses ta’kidlaganidek, madaniy metaforalar universal asosga ega bo‘lsa-da, ularning aniq shakli madaniyatga bog‘liq (Kövecses, 2006).

Ikki tildagi birliklarning muvofiqlik darajasi ekvivalentlik va lakunarlik nazariyasi orqali o‘lchanadi (Baker, 1992). Ikki tilli lug‘at maketidagi 159 juftlik tahlili natijasi 3-jadvalda berilgan.

| Munosabat turi | Juftliklar soni | Ulushi, % | Misollar |
|---|---|---|---|
| Qisman izomorfizm | 85 | 53,5 | Big Dipper – Yetti qaroqchi |
| To‘liq izomorfizm | 57 | 35,8 | Aldebaran – Dabaron; celestial equator – Osmon ekvatori |
| Allomorfizm | 12 | 7,5 | Venus – Venera, Cho‘lpon, Zuhro |
| Lakunar birliklar | 5 | 3,1 | harvest moon, Charles’s Wain |
| Jami | 159 | 100 | |

**3-jadval.** *Ingliz va o‘zbek tillaridagi samoviy jism nomlarining muvofiqlik darajasi*

Qisman izomorfizmning ustunligi ikki tilda bir denotat ko‘pincha turli obraz orqali nomlanishini tasdiqlaydi. Lakunar birliklarning barchasi ingliz tiliga xos bo‘lib, taqvim, eskirgan poetik qatlam yoki o‘rta asr maishiy obraziga tayanadi.

**Xulosa**

O‘tkazilgan tahlil quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi.

1. Samoviy jism nomlari onomastik tizimda denotati, ma’no tuzilishi va vazifasi bilan ajralib turuvchi mustaqil sinfdir. Uni qo‘shni sinflardan ajratishda denotativ, ma’noviy, funksional va madaniy mezonlar birga qo‘llanadi. Asosiy atama sifatida *samoviy jism nomi* birikmasi, unga teng hajmli sinonim sifatida *kosmonim* atamasi taklif etiladi.

2. Sinf ichida xalq qatlami va rasmiy nomenklatura farqlanadi. Ingliz tilida bu qatlamlar bir nom atrofida funksional taqsimlangan bo‘lsa, o‘zbek tilida rus tili orqali kirgan rasmiy shakllar bilan xalq nomlari o‘rtasidagi uzviy aloqa yo‘qolgan.
3. Leksik-semantik tavsif uchun nominatsiya nazariyasi, komponent tahlil va semantik maydon nazariyasi birga qo‘llanadi. Nom ma’nosida to‘rt sema ajratiladi. Xalq nomida ularning barchasi faol bo‘lsa, katalog belgisida faqat denotativ munosabat qoladi.
4. Lingvomadaniy tavsif madaniy konnotatsiya, konsept, olamning til manzarasi va madaniy kod tushunchalariga tayanadi. Ingliz tilida yagona yunon-rim mifologik tizimi, o‘zbek tilida esa turkiy, eroniy va islomiy qatlamlarning qorishuvi ustun.
5. Ikki tildagi 159 juftlikning yarmidan ko‘pi (53,5%) qisman izomorfizm munosabatida turadi. Bu bir denotatning turli madaniyatlarda turli obraz orqali nomlanishini tasdiqlaydi.

Taklif etilgan nazariy apparat va uch bosqichli chog‘ishtirma metodika ikki tildagi samoviy jism nomlarining tematik tasnifi, nomlash motivlari va etimologik qatlamlarini korpus asosida tahlil qilish uchun asos bo‘ladi. Natijalardan o‘zbek astronomiya terminologiyasini tartibga solishda, xalq nomlarini o‘quv adabiyotiga qaytarishda va ikki tilli lug‘at tuzishda foydalanish mumkin.

**References:**

1. Allen, R. H. (1963). *Star names: Their lore and meaning*. Dover Publications.
2. Apresyan, Yu. D. (1995). *Izbrannye trudy. T. 1: Leksicheskaya semantika* [Selected works. Vol. 1: Lexical semantics]. Yazyki russkoy kul’tury.
3. Baker, M. (1992). *In other words: A coursebook on translation*. Routledge.
4. Berdimuratova, R. R. (2025). Reflection of historical-cultural, ethnocultural and mythological features in cosmonyms. *EPRA International Journal of Research and Development, 10*(8), 112–117. https://doi.org/10.36713/epra23586
5. Blair, D., & Tent, J. (2021). A revised typology of place-naming. *Names: A Journal of Onomastics, 69*(4), 30–47.
6. Bright, W. (2003). What is a name? Reflections on onomastics. *Language and Linguistics, 4*(4), 669–681.
7. Daulet, M., & Yıldırım, S. (2026). Qazaq jäne ağılşın tilderindegi kosmonim-konsepter [Cosmonym concepts in Kazakh and English]. *Tiltanym, 2*(102), 122–131. https://doi.org/10.55491/2411-6076-2026-2-122-131
8. Gak, V. G. (1977). *Sopostavitel’naya leksikologiya* [Contrastive lexicology]. Mezhdunarodnye otnosheniya.
9. Gałkowski, A. (2025). Towards a cognitive-lexicological approach to onomastic terminology: Cross-linguistic insights from English, Italian, Polish, and Slovak. *Lege artis. Language yesterday, today, tomorrow, 10*(2), 54–72.
10. Hoffmann, S. M., Vickers, D., Mamajek, E., et al. (2025). The IAU Working Group on Star Names (WGSN): A review of recent activities. *Journal of Astronomical History and Heritage, 28*(1), 280–286.
11. Hough, C. (Ed.). (2016). *The Oxford handbook of names and naming*. Oxford University Press.
12. Ibragimova, D. A. (2018). The comparative analysis of cosmonims in English, Russian and Uzbek languages. *Academy, 10*(37), 50–51.

13. Karpenko, Yu. A. (1981). *Nazvaniya zvyozdnogo neba* [Names of the starry sky]. Nauka.
14. Koshg'ariy, M. (1960–1963). *Devonu lug'otit turk* (S. Mutallibov, Tarj.; 1–3-jildlar). Fan.
15. Kövecses, Z. (2006). *Language, mind, and culture: A practical introduction*. Oxford University Press.
16. Kozma, J. (2018). Names of astronomical objects from a global and local perspective. *Onomastica Uralica, 14*, 177–189.
17. Kripke, S. (1980). *Naming and necessity*. Harvard University Press.
18. Kubryakova, E. S. (2004). *Yazyk i znanie* [Language and knowledge]. Yazyki slavyanskoy kul'tury.
19. Kunitzsch, P., & Smart, T. (2006). *A dictionary of modern star names: A short guide to 254 star names and their derivations* (2nd ed.). Sky Publishing.
20. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors we live by*. University of Chicago Press.
21. Li, Y.-S. (2014). Some star names in modern Turkic languages–I. *Türk Dili Araştırmaları Yıllığı – Belleten, 62*(1), 121–156.
22. Mamadazimov, M. (2018). *Astronomiya: 11-sinf uchun darslik*. Davr nashriyoti.
23. Maslova, V. A. (2010). *Lingvokul'turologiya* [Linguoculturology] (4th ed.). Akademiya.
24. Matyakubov, X. K. (2026). The continuous categorization of space through binary oppositions in Uzbek and English folklore onomastics. *The Lingua Spectrum, 5*, 121–127.
25. Mill, J. S. (1843). *A system of logic, ratiocinative and inductive* (Vol. 1). John W. Parker.
26. Nikonov, V. A. (1965). *Vvedenie v toponimiku* [Introduction to toponymy]. Nauka.
27. Podolskaya, N. V. (1988). *Slovar' russkoy onomasticheskoy terminologii* [Dictionary of Russian onomastic terminology] (2nd ed.). Nauka.
28. Qurbonova, G. X. (2023). Astronimlarning nominativ xususiyatlari (ayrim yulduz va yulduz turkumlari nomlari misolida). In *Current problems of modern linguistics and an innovative approach in teaching foreign languages: IV xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari* (p. 725). Farg'ona davlat universiteti. https://conf.fdu.uz/index.php/conf/article/download/2642/2196/4006
29. Rahmatullayev, Sh. (2000). *O'zbek tilining etimologik lug'ati* (1-jild: Turkiy so'zlar). Universitet.
30. Ruggles, C. L. N. (Ed.). (2015). *Handbook of archaeoastronomy and ethnoastronomy*. Springer.
31. Rut, M. E. (1987). *Russkaya narodnaya astronimiya* [Russian folk astronymy]. UrGU.
32. Searle, J. R. (1958). Proper names. *Mind, 67*(266), 166–173.
33. Sharifian, F. (2017). *Cultural linguistics: Cultural conceptualisations and language*. John Benjamins.
34. Stepanov, Yu. S. (2004). *Konstanty: Slovar' russkoy kul'tury* [Constants: Dictionary of Russian culture] (3rd ed.). Akademicheskiy proekt.
35. Superanskaya, A. V. (1973). *Obshchaya teoriya imeni sobstvennogo* [General theory of the proper name]. Nauka.
36. Teliya, V. N. (1996). *Russkaya frazeologiya: Semanticheskiy, pragmaticheskiy i lingvokul'turologicheskiy aspekty* [Russian phraseology: Semantic, pragmatic and linguocultural aspects]. Yazyki russkoy kul'tury.
37. Trier, J. (1931). *Der deutsche Wortschatz im Sinnbezirk des Verstandes*. Carl Winter.
38. Turdimov, Sh. (2024). Osmon yoritqichlari va olam tartibi haqidagi o'zbek mifologik tizimi. *İmgelem, Özbekistan Özel Sayısı*, 271–292. https://doi.org/10.53791/imgelem.1505714
39. Tursunov, A. R. (2025). Onomastik leksikografiyaning nazariy asoslari. *Onomastika: xalqaro elektron ilmiy jurnal*, (3), 8–15.

40. Valentová, I., & Králik, Ľ. (2022). Theory of proper names by Vincent Blanár and research into Slovak anthroponymy. *Onoma, 57*, 87–103. https://doi.org/10.34158/ONOMA.57/2022/6
41. Van Langendonck, W. (2007). *Theory and typology of proper names*. Mouton de Gruyter.
42. Xajiyeva, R. (2026). O'zbek va ingliz tillarida kosmonimlarning ramziy ma'nolari asoslari. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 3*(5), 130–131. https://doi.org/10.5281/zenodo.20455479
43. Yartseva, V. N. (1981). *Kontrastivnaya grammatika* [Contrastive grammar]. Nauka.